

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi

Davolash fakulteti 410-guruh talabasi

Abduxamidov Shoxrux Anvar o'g'li

Annotatsiya: *Mazkur maqolada katarakta kasalligining kelib chiqish sabablari, turlari hamda ko'z optik hujayralariga ta'siri haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *optik, hujayra, katarakta, simptom.*

Respublikamizda jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoyalash, o'qitish va tarbiya berish masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarilganki, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi Qonuni (23 -modda) va davlat tomonidan 1992-yil ratifikatsiya qilingan BMT ning «Bola huquqlari to'g'risida»gi Konvensiyasi (23 -modda) da nogiron bolalarning alohida parvarishlash, ta'limdan foydalanish, munosib turmush kechirish huquqlariga egaliga e'tirof etilgan. Shuningdek, ko'rishida muammosi bo'lgan bolalarni o'qitish jarayonini turli zamonaviy talablar bilan uyg'unlashgan texnologiyalar asosida tashkil etish bugungi kunda maxsus pedagogikaning dolzarb masalalaridan hisoblanmoqda. «Sog'liq va rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun munosib muhit yaratiladi» deyiladi, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da. Nogironlikni oldini olish maqsadlarining ijobiy hal qilinishi nogironlarning ijtimoiy tiklash bo'yicha Davlat dasturini ishlab chiqish va hayotga tatbiq qilish bilan uzviy bog'liqdir. Katarakta – ko'z gavharining xira tortishi, dunyodagi eng keng tarqalgan ko'z kasalligi bo'lib, 40 yoshdan oshgan odamlarda ko'rish qobiliyatini yo'qotishning asosiy sabablaridan biridir. Ushbu kasallik paydo bo'lganda asta-sekin ko'zning linzalarida shaffof bo'lmagan nuqtalar paydo bo'ladi va bora-bora insonning ko'rish qobiliyati to'xtaydi. Katarakta bilan bog'liq asosiy qiyinchiliklardan biri – bu ularning bilinmasligi. Sababi shifokor tomonidan

bemorga kasallik ko'rishga sezilarli darajada xalaqit beradigan bosqichda maslahat beriladi. Iloji boricha ko'rish qobiliyatini va uning eng yaxshi darajasini saqlab qolish uchun kataraktaning dastlabki belgilarini bilish juda muhim. Katarakta tug'ma va hayotda orttirilgan bo'ladi. Ona qornida rivojlanayotgan homilaga turli tashqi (zaharlanish, gipova avitaminoz, nurlanish) va ichki (ona va bolaning rezus kelishmovchiligi) muhitlarning salbiy ta'siri, homiladorlik vaqtida onaning turli kasalliklar, ayniqsa, yuqumli kasalliklar bilan og'rishi, shuningdek, nasldannaslgaga o'tuvchi irsiy kasalliklar tug'ma kataraktaga sabab bo'ladi. Bunda gavharning xiralashishi juda sekin rivojlanishi mumkin, ayrim bemorlarda umr bo'yi o'zgarmaydi. Organizmda moddalar almashinuvining buzilishi, qand kasalligi, shuningdek, umumiy kasalliklar, ko'z shikastlanishlari va kasalliklari, yaqindan ko'rishning og'ir shakli, yuqori temperaturada uzoq ishlash, turli zaharli moddalar va ionlashtiruvchi nurlar ta'sirida orttirilgan katarakta yuzaga keladi. Orttirilgan kataraktaning qarilik, travmatik va asoratli (glaukoma, iridotsiklit, qand kasalligi va b.ning asorati sifatida) turlari bor. Orttirilgan kataraktada vaqt o'tishi bilan ko'z gavhari butunlay xiralashib qoladi. Qarilikdagi katarakta asta-sekin rivojlanadi, u ko'proq 55—60 yoshdan oshganlarda uchraydi. Qarilikdagi katarakta ning boshlanish, yetilmagan, yetilgan va yetilib o'tib ketgan bosqichlari farq qilinadi, uning yetilgan davri hammada har xil, bu odatda, bemorning umumiy ahvoli va yoshiga bog'liq. Operatsiya muddatini belgilashda kasallikning yetilgan bosqichi muhim. kataraktada dastlab bemorning kasal ko'zi oldi jimirlab, nuqta, chiziq va dog'lar paydo bo'ladi; yonib turgan lampa, shar yoki fonarga shu ko'z bilan Karaganda, u bir nechta bo'lib ko'rinadi. Bu — notekis xiralashgan ko'z gavharining nur sindirish xususiyati buzilishi oqibatida ro'y beradi. Ko'zning xira tortishi uning boshqa kasalliklarida ham kuzatiladi, shuning uchun, albatta, vrachga murojaat etish va kasallikni o'z vaqtida aniqlash lozim. Dorilar bilan davolanadi yoki mikroxirurgiya, ultratovush yoki lazer nurlari yordamida operatsiya qilib xiralashgan ko'z gavhari olib tashlanadi. **Tug'ma kataraktalarda** — ko'z gavharining tug'ma yallig'lanish kasalligi hisoblanadi^[1]. Tug'ma katarakta bolalarda ko'rish organining barcha tug'ma nuqsonlari yarmidan ko'pini tashkil

qiladi. Kasallik ham bir tomonlama, ham ikki tomonlama bo'lishi mumkin, shuningdek, boshqa patologiyalar bilan birgalikda kelishi mumkin^[2]. 2010-yilda dunyo bo'ylab katarakta tufayli ko'rish qobiliyatini yo'qotganlar soni 35,1 million kishini tashkil etgan va ulardan 10,8 millionga yaqin kishi esa butunlay ko'r bo'lib qolgan^[3]. Katarakta rivojlanishining ikki alomati – ko'rishning pasayishi hamda ko'rilayotgan jismlarning xiralashuvi. Agar atrofdagi dunyo tobora ko'proq tasavvurga asoslangan rasmlarga o'xshasa, unda shifokorga murojaat qilish vaqti kelgan. Rivojlanayotgan katarakta tufayli ko'zdagi yorug'likni aks ettirishga yordam beradigan obyekt tobora bulutli, xiralashgan va loyqalangandek ko'rinadi. Kasallik rivojlanishining yana bir alomati shundaki, bemor ranglarni farqlashi tobora qiyinlashadi. Oq rang biroz sarg'ish, qaymoqrang esa kulrang kabi ko'rinadi. Eng achinarlisi, ushbu jarayon asta-sekinlik bilan amalga oshiriladi, shuning uchun ham ranglarni idrok etishdagi o'zgarishlarni o'z-o'zidan sezish juda qiyin. Demak ranglarni ajrata olmayotganlik yaqqol namoyon bo'layotgan bo'lsa, darhol oftalmolog bilan bog'lanish zarur. Rivojlanayotgan kataraktaning keng tarqalgan va tez-tez uchraydigan alomati – nurga sezgirlikning oshishi. Ushbu kasallik davrida yorqin lampalar haqiqiy dushmanga aylanadi va odatdagi yorug'lik darajasi ham juda yorqin va hattoki og'riqli bo'lishi mumkin. Agar yorug'lik tufayli inson o'zini noqulay seza boshlasa, zudlik bilan shifokor ko'rigidan o'tish tavsiya etiladi. Inson yoshi o'tgan sayin, ko'proq ehtiyotkorlikni talab etadi. Uzoqni ko'ra olmaslik keng tarqalgan muammolardan biri bo'lib, 50 yoshdan oshgan odamlarning aksariyati bunga duch keladi. Ammo kitob va jurnallarda kichik shriftdagi yozuvlar o'qilishida ham qiyinchilik paydo bo'lsa, bu kataraktaning rivojlanishi sababi bo'lishi mumkin. Ko'z linzasi suv va oqsildan iborat bo'lib, katarakta oqsilni joyidan siljishiga olib keladi va shu tufayli kichik o'lchamdagi yozuv va belgilarni ko'rish qiyinlashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Maxsus pedagogika (Darslik). -T.: «Fan va texnologiya», 2014, 368 bet.
2. <https://fayllar.org/mavzu-mutaxassislik-fanlari--korishda-nuqsoni-bolgan-bolalar-h.html>?

3. <https://mymedic.uz/kasalliklar/oftalmologiya/koz-kasalliklari>

4. <https://avitsenna.uz/astigmatizm/?ysclid=ldra9eg61k239487894>